





NAMANGAN VILOYATIDA OLIY TA'LIM TIZIMI



Oliy ta'lim bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo'yicha yuqori malakali kadrlar tayyorlanishini ta'minlaydi. Oliy ta'lim ikki bosqichga – bakalavriat va magistratura bosqichiga ega. Bakalavriat oliy ta'lim yo'nalishlaridan biri bo'yicha chuqurlashtirilgan bilim, malaka va ko'nikmalar beradigan, o'qish davomiyligi kamida uch yil bo'lgan tayanch oliy ta'limdir. Magistratura tegishli bakalavriat negizidagi aniq mutaxassislik bo'yicha o'qish davomiyligi kamida bir yil bo'lgan oliy ta'limdir.



Oliy ta'lim tashkilotlari soni, birlikda
(2020/2021-o'quv yili boshida)



Namangan viloyatida jami 3 ta oliy ta'lim
muassasalari mavjud






Namangan viloyatida oliy ta'lim tizimida oliy harbiy bilim yurtlaridan tashqari 3 ta oliy ta'lim tashkilotlari mavjud bo'lib, ularning tarkibida 1 ta universitetlar va 2 ta institutlar faoliyat yuritmoqda.

Namangan viloyatida 2020/2021-o'quv yili boshiga oliy ta'lim tashkilotlari soni 3 tani tashkil etib, ularda tahsil olayotgan talabalar o'tgan yilning mos davriga nisbatan 5591 taga (4,6%) ko'paydi.



Oliy ta'lim tashkilotlari talabalari soni, kishi (2020/2021- o'quv yili boshida)



2020/2021- o'quv yili boshiga oliy ta'lim tashkilotlarida jami 25989 nafar talaba tahsil olayotgan bo'lib, ularning asosiy qismi ya'ni 15497 nafar talaba (59,6 %) Universitetda tahsil olmoqda

Oliy ta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan talabalarning jinsi bo'yicha taqsimlanishi (2020/2021- o'quv yili boshida)



ayollar

46,8%



2020/2021- o'quv yili boshiga oliy ta'lim tashkilotlarida jami 25,9 ming nafar talaba tahsil olmoqda, ulardan 12,1 ming nafarini (46,8 % ni) qizlar va 13,8 ming nafarini erkaklar (53,2 % ni) tashkil etdi.



erkaklar

53,5%



Oliy ta'lim tashkilotlari talabalarining yoshi bo'yicha taqsimlanishi, kishi (2020/2021- o'quv yili boshiga)




Jami	25989				
17 yosh va undan kichik	342	22 yosh	3015	26-29 yosh	3044
18 yosh	1724	23 yosh	2487	30-34yosh	1984
19 yosh	2405	24 yosh	1913	35-39 yosh	914
20 yosh	2681	25 yosh	1546	40 yosh va undan katta	718
21 yosh	3216				



2020/2021- o'quv yili boshiga Namangan viloyati bo'yicha oliy ta'lim tashkilotlarida 25989 nafar talaba ta'lim olayotgan bo'lib, ulardan 3216 nafari 21 yoshni, 2681 nafari 20 yoshni, 3015 nafari 22 yoshni, 2487 nafari 23 yoshni tashkil etmoqda.

Oliy ta'lim tashkilotlariga qabul qilingan talabalar soni, ming kishi (2020/2021- o'quv yili boshiga)




- Jami qabul qilingan talabalardan sirtqi
- Jami qabul qilingan talabalardan kundizgi
- Jami qabul qilingan talabalar

✓ 2020/2021- o'quv yili boshiga oliy ta'lim tashkilotlariga jami 7643 nafar talaba qabul qilingan bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 17,1 % ga oshgan. Eng ko'p qabul qilingan talabalar NaMDU to'g'ri kelgan.




Namangan viloyatida oliy ta'lim tizimi



✓ 2020- yilda Namangan viloyatida oliy ta'lim tashkilotlarini jami 4113 nafar talabalar tamomlagan bo'lib, ulardan 2128 nafarini ayollar (51,7% ni) tashkil etsa, 1985 nafari erkaklar (48,3 % ni) dan iborat.

Oliy ta'lim tashkilotlarining professor-o'qituvchi xodimlari soni, ming kishi (2020/2021- o'quv yili boshiga)



- Jami o'qituvchilardan ayollar
- Jami o'qituvchilardan erkaklar
- Jami professor-o'qituvchilar

✓ 2020/2021- o'quv yili boshida Namangan viloyatida oliy ta'lim tashkilotlarida jami 1265 nafar professor-o'qituvchilar (o'rindoshlarsiz) faoliyat yuritmoqda. Shundan 334 nafari ayollar (26,5 %) ni tashkil etsa, 931 ming nafari erkaklar (73,5 %) dan iborat.